KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	789
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI.....	794
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	



KORXONA ASOSIY XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKT SIFATIDA AHAMIYATI.....	799
Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI.....	803
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	807
Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	



AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich

Farg'ona davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

ORCID:0000-0002-8312-231508.00.00-Iqtisodiyot fanlari

Annotatsiya. Maqolada buxgalteriya hisobida baholash, baholashning zaruriyati va ahamiyati, moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning kontseptual asosiga muvofiq baholash turlari, boshlang'ich qiymat, boshlang'ich qiymatning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar, aktivlar va majburiyatlarni MHXS talablari asosida joriy qiymatda baholash tartibi, shuningdek, MHXS talablari asosida joriy qiymatda baholash orqali moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchiligi va shaffofligini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: baholash, aktivlar, majburiyatlar, moliyaviy hisobot, kontseptual asos, boshlang'ich qiymat, joriy qiymat, haqqoniy qiymat.

Abstract. The article discusses valuation in accounting, the necessity and importance of valuation, types of valuation in accordance with the conceptual framework for presenting financial statements, initial value, factors influencing changes in initial value, the procedure for valuing assets and liabilities at current value based on IFRS requirements, as well as ensuring the reliability and transparency of financial reporting information through current-value measurement in accordance with IFRS requirements.

Key words: valuation, assets, liabilities, financial reporting, conceptual framework, initial value, current value, fair value.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оценки в бухгалтерском учёте, необходимость и значение оценки, виды оценки в соответствии с концептуальными основами представления финансовой отчётности, первоначальная стоимость, факторы, влияющие на изменение первоначальной стоимости, порядок оценки активов и обязательств по текущей стоимости на основе требований МСФО, а также вопросы обеспечения достоверности и прозрачности данных финансовой отчётности посредством оценки по текущей стоимости в соответствии с требованиями МСФО.

Ключевые слова: оценка, активы, обязательства, финансовая отчётность, концептуальные основы, первоначальная стоимость, текущая стоимость, справедливая стоимость.

KIRISH

Iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, buxgalteriya hisobi borasida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Keyingi yillar mobaynida xalqaro standartlarga to'la-to'kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasining ancha kengayib borayotgani, integratsiya jarayonlarining chuqurlashayotgani, qo'shma korxonalar barpo etilayotgani, jahon moliya bozoriga chiqilayotgani, sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni yanada qat'iyroq talab qilmoqda (1; 3-b).

Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun zaruriy ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlash, buxgalteriya hisobi obyektlarini buxgalteriya hisobining standartlari asosida to'g'ri hisobga olish, ularni qiymat ko'rinishida to'g'ri baholash va natijalarni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish muhim ahamiyatga egadir. Korxona aktivlari va majburiyatlarini buxgalteriya hisobining standartlari talablari asosida to'g'ri baholanishi moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarning shaffof aks ettirilishining asosiy omili hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Baholash buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Baholash natijasida korxona aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari qiymat holda aks ettiriladi. N.B.



Abdusalomovanning ilmiy adabiyotlarida buxgalteriya hisobida pul ko'rinishida baholashga "Buxgalteriya hisobi xo'jalik subyektlarida sodir bo'layotgan xo'jalik mablag'lari va jarayonlarining harakatini ma'lum hujjatlar bilan asoslangan holda ro'yxatga olish va pulda baholab umumlashtirilgan tarzda yoppasiga va bevosita kuzatish tizimidir" deb ta'rif beriladi (2; 6-b). S.N. Toshnazarovning ilmiy adabiyotlarida buxgalteriya hisobida pul ko'rinishida aks ettirish va baholashning ahamiyati to'g'risida quyidagicha fikr bildiriladi: "Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining an'anaviy prosedurasi deganda, pulda o'lchaniladigan iqtisodiy operatsiyalarni, hodisalarni o'lchash, baholash, yozuvlarni amalga oshirish va hisobotlar taqdim etishning eng samarali ketma-ketligi tushuniladi" (3; 168-b).

K.B. Urazovning ilmiy adabiyotlarida baholashga "Baholash – bu korxona aktivlarining qiymatini pulda ifodalash usuli" deb ta'rif berilgan (4; 37-b). N. Toshmamatov fikricha, aktivlar, passivlar va majburiyatlar buxgalteriya hisobida pul ifodalarida aks ettiriladi. Buning uchun ular qiymat o'lchovlarida baholanadi. Hisob obyektlarini pulda o'lchash qiymat qonunining amal qilishiga bog'liq bo'lib, bunga so'm va tiyinlarda hisob yuritish misol bo'ladi (5; 39-b). R.O. Xolbekov buxgalteriya hisobi usuli elementlaridan biri bo'lgan baholashga quyidagicha ta'rif beradi: "Buxgalteriya hisobi usuli elementlaridan biri baholash bo'lib, uning ahamiyati butun xo'jalik miqyosida ham kattadir.

Baholash – xo'jalik mablag'lari, majburiyatlar va xo'jalik jarayonlarini pul o'lchov birligida aks ettirish usulidir" (6; 27-b). Yu.A. Babayevning fikricha, pul bilan baholash – bu butun tashkilot uchun joriy davr uchun umumlashtirilgan ma'lumotlarni olish maqsadida aktivlar, majburiyatlar va xo'jalik operatsiyalarining puldagi ifodasidir (7; 38-b). I.V. Goman ta'rificha esa: "Baholash – bu tashkilotning aktivlari, ularning manbalari va majburiyatlarini pul bilan o'lchash usuli" (8; 7-b). N.N. Kireenko ilmiy adabiyotlarida baholashning ahamiyati to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: tashkilotning iqtisodiy aktivlarini o'lchash va tavsiflash turli o'lchov birliklari (jismoniy, mehnat) yordamida amalga oshiriladi, ammo buxgalteriya hisobidagi asosiy narsa puldir. Buxgalteriya bahosi – bu buxgalteriya hisobi obyektlarining qiymatini o'lchash usuli bo'lib, u barcha xo'jalik aktivlari va ularning manbalari, xo'jalik operatsiyalari hamda buxgalteriya jarayonlarini pul ko'rinishida aks ettirish imkonini beradi. Baholashning maqsadi yakunlangan iqtisodiy hodisaning haqiqiy qiymatini aniqlashdir (9; 80-b).

V.E. Kerimov buxgalteriya hisobiga ta'rif berar ekan, tashkilotlarning mulki, majburiyatlari va ularning harakati pul ifodasida baholanishini qayd etadi. Buxgalteriya hisobi – bu barcha xo'jalik operatsiyalarini uzluksiz, yoppasiga va hujjatli qayd etish orqali tashkilotlarning mulki, majburiyatlari va ularning harakati to'g'risida pul shaklida ma'lumotlarni yig'ish, hisobga olish va umumlashtirishning uyushgan tizimidir (10; 14-b). Z.N. Qurbonov o'zining ilmiy adabiyotlarida baholashni "xo'jalik mablag'lari, majburiyatlar va xo'jalik jarayonlarini pul o'lchov birligida aks ettirish" deb ta'kidlab o'tgan (11; 17-b). Buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish va baholash buxgalteriya hisobi standartlari talablari asosida amalga oshiriladi. S.N. Toshnazarovning ilmiy adabiyotlarida buxgalteriya hisobi standartlari buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish va baholash tartibini, prinsip va qoidalarining qo'llanilishi, shuningdek moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning mazmuni va tarkibiga doir minimal talablarni belgilashi ta'kidlanadi (12; 36-b).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi hisobga olish usullarini tanlash, aktivlar va majburiyatlarni baholashda milliy standartlar va MHXS talablarini qiyosiy taqqoslash asosida baholashning eng to'g'ri turlarini aniqlash, uning korxona moliyaviy holatiga ta'sirini baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi raqamli iqtisodiyot, iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini to'g'ri aniqlash hamda investitsiyalar kiritish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish uchun aktivlar hamda majburiyatlarning aniq baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash sohasi buxgalteriya hisobi va hisobotida eng muhim va muammoli jarayonlardan biri hisoblanadi. Aktivlar va majburiyatlarni haqqoniy baholash korxona faoliyati to'g'risida aniq ma'lumot olish, korxonaning istiqbolli kelajagini bashorat qilish va faoliyatni rivojlantirish borasida qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, aktivlar va majburiyatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni talab etadi.

Aktiv va majburiyatlarni MHXS talablari asosida to'g'ri, haqqoniy baholash zaruriyati quyidagi sabablar bilan bevosita bog'liqdir:

1. Moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirish — aktiv va majburiyatlarni haqqoniy qiymatda baholash orqali korxona hisobotidagi ma'lumotlar bozor sharoitiga mos ravishda bo'ladi va investorlar, kreditorlar hamda boshqa foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot manbai bo'ladi.




2. Investorlar va kreditorlar uchun to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyati — haqqoniy qiymatda baholangan aktivlar va majburiyatlar korxonaning haqiqiy moliyaviy salohiyatini ko'rsatadi, bu esa sarmoya kiritish yoki qarz berishda xatarni kamaytiradi.

3. Bozor munosabatlariga mos hisob yuritish — bozor sharoitida aktivlarning qiymati tez o'zgarib turadi. Tarixiy (boshlang'ich) qiymatda baholash korxona moliyaviy holatini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shuning uchun haqqoniy qiymatda baholash iqtisodiy voqelikni to'liqroq namoyon etadi.

4. Soliq va audit jarayonlarida aniqlikni ta'minlash — aktivlar haqqoniy qiymatda baholanganida ulardan kelib chiqadigan daromad yoki zarar real iqtisodiy natijalarga mos ravishda hisoblanadi.

5. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiqlik — zamonaviy hisob tizimida, ayniqsa MHXS bo'yicha hisob yurituvchi korxonalar uchun haqqoniy qiymat usuli asosiy talablardan biri hisoblanadi.


Aktiv va majburiyatlarni MHXS talablari bo'yicha baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat: aktivlar va majburiyatlar real bozor narxlariga yaqin qiymatda baholanishi hisobotdagi ma'lumotlarning haqiqiy iqtisodiy holatni aks ettirishini ta'minlaydi; haqqoniy qiymatda baholangan moliyaviy hisobotlar boshqa mamlakatlar korxonalari hisobotlari bilan taqqoslash imkonini beradi; investorlar kompaniyaning aktiv va majburiyatlarini haqiqiy qiymatda ko'radi, bu ularning qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va investitsiya xavfini kamaytiradi; aktivlarning haqiqiy qiymatini bilish orqali korxona rahbariyati aktivlarni faol boshqarish, sotish yoki qayta investitsiya qilish haqida ob'ektiv qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi; aktivlarning bozor qiymati o'zgarishiga qarab qayta baholashga ruxsat beriladi, bu esa moliyaviy holatni haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning kontseptual asosida moliyaviy hisobotda tan olinadigan elementlar pul ifodasida taqdim qilinishi, bu tegishli baholash asosini tanlashni talab etishi, aktiv yoki majburiyatga nisbatan baholash asosini qo'llash mazkur aktiv yoki majburiyat hamda ular bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar qiymatini belgilashini ko'rsatib o'tadi. Kontseptual asosga muvofiq baholashning quyidagi turlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Baholashning turlari.¹

Boshlang'ich qiymat — aktivlar, majburiyatlar va ular bilan bog'liq daromadlar va xarajatlarni yuzaga keltiradigan bitim yoki boshqa hodisa narxidan olingan ma'lumotdan foydalanilgan holda ular to'g'risida pul ifodasidagi ma'lumotni taqdim etadi. Aktivni xarid qilish paytidagi boshlang'ich qiymati — ushbu aktivni xarid qilishida to'langan haq va aktivni xarid qilishda amalga oshirilgan sarflarning qiymati hisoblanadi. Sotib olingan aktivlarning boshlang'ich qiymatiga uning sotib olish, olib kelish, o'rnatish va ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Aktivni yaratish paytidagi uning boshlang'ich qiymati — ushbu aktivni yaratish maqsadida to'langan haq va aktivni yaratishda amalga oshirilgan sarflarning qiymati hisoblanadi. Aktivlar qurish, yaratish orqali yaratilganda qurilish ishlari uchun sarflangan barcha xarajatlar kiritiladi. Majburiyatning yuzaga kelish paytidagi boshlang'ich qiymati bitim bo'yicha sarflari chegirilgan ushbu majburiyatni o'z zimmasiga qabul qilish uchun olingan haq qiymati hisoblanadi. Aktivlar va majburiyatlarning boshlang'ich qiymati o'zgarmas hisoblanmaydi. Aktivlar va majburiyatlarning boshlang'ich qiymati quyidagilarni aks ettirish uchun vaqt o'tishi bilan yangilanadi, o'zgaradi (2-rasm).

¹ Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning kontseptual asosi ma'lumotlari asosida mallif ishlanmasi.



2-rasm. Aktivlar va majburiyatlarni boshlang'ich qiymati qiymatning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar².

Aktiv va majburiyatlarni joriy qiymatda baholash korxonaning moliyaviy ahvoli haqida real va yangilangan axborot taqdim etish imkonini beradi. Bu usul aktivlarning amaldagi foydalanishdan kelib chiqadigan iqtisodiy foydasi va majburiyatlarning haqiqiy qoplash qiymatini aniq ko'rsatadi. Joriy qiymati — aktivlar, majburiyatlar va ular bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar to'g'risida baholash sanasida mavjud shartlarni aks ettirish uchun yangilangan ma'lumotdan foydalangan holda pul ifodasida aks ettirilishiga aytiladi. Joriy qiymat haqqoniy qiymat, aktivlar uchun foydalanish qiymati va majburiyatlar uchun ijro etish qiymati hamda o'rnini qoplashning joriy qiymati asosida aniqlanadi.

Haqqoniy qiymat — bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. Hozirgi zamon raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonaning moliyaviy ahvoli va uning iqtisodiy faoliyati haqida ishonchli ma'lumot berish juda muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan aktivlar va majburiyatlarni haqqoniy (bozor) qiymatda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar va majburiyatlarni haqqoniy qiymatda baholash korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini ochib berish, iqtisodiy qarorlarni samarali qabul qilish va xalqaro standartlarga mos hisob yuritish uchun zarurdir. Bu usul orqali moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun ishonchli, aniq va qiyoslash mumkin bo'lgan axborot taqdim etiladi. Haqqoniy qiymat bo'yicha baholashda aktivlar va majburiyatlar bevosita faol bozor (bozordagi narxlar) ma'lumotlari asosida baholanadi, ularga korxona tomonidan o'zgartirish kiritilmaydi. Haqqoniy qiymat faol bozordagi narxlarni bevosita kuzatish orqali aniqlanishi mumkin. Foydalanish qiymati — bu tashkilot aktivdan foydalanish va uni yakuniy hisobdan chiqarish natijasida korxona olinishi kutilayotgan pul oqimlari yoki boshqa iqtisodiy naflarning joriy qiymatidir. Ijro etish qiymati — bu tashkilot o'z majburiyatini ijro etish hisobiga o'tkazishi lozim bo'lgan pul oqimlari yoki boshqa iqtisodiy naflarning joriy qiymatidir. Foydalanish va ijro etish qiymati bozor ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan taxminlarga emas, tashkilot uchun xos taxminlarga asoslanadi.

Korxonalar bu usulda baholashda baholarni to'g'ridan-to'g'ri olish imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli baholash xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar yordamida aniqlanishi ham mumkin. Masalan, korxonada foydalanilgan bino (eski bino) mavjud, binodan yana 5 yil muddat davomida foydalansa bo'ladi. Binoni ijaraga berishdan har yili yilning oxirida to'lash sharti bilan 50 000,0 ming so'mdan ijara bo'yicha daromad olinishi mumkin. Diskontlash stavkasi 10 %. Besh yil davomida keladigan jami 250 000,0 (50 000 × 5) ming so'm pul oqimining baholash sanasidagi joriy qiymati aktivdan foydalanish qiymatini beradi. Binoning bugungi qiymati 189 550,0 ming so'mni tashkil etadi.

$$PVA = A \times k(i,n) = 50\,000,0 \times 3,791 = 189\,550,0 \text{ ming so'm.}$$

² Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi ma'lumotlari asosida mallif ishlanmasi.



Binoning baholash kunidagi foydalanish qiymati 189 550,0 ming so'mni tashkil etadi. Korxonaning qarz vositasi bo'yicha uch yil davomida har yilning oxirida 100 000,0 ming so'm foizlarni va uchinchi yilning oxirida 1 000 000,0 ming so'mni to'lashi zarur bo'lsin.

Diskontlash stavkasi 10 %.

1-yil: $100\,000,0 \times 0,909 = 90\,900,0$ ming so'm;

2-yil: $100\,000,0 \times 0,826 = 82\,600,0$ ming so'm;

3-yil: $(100\,000,0 + 1\,000\,000,0) \times 0,751 = 826\,100,0$ ming so'm.

Jami: $90\,900,0 + 82\,600,0 + 826\,100,0 = 999\,600,0$ ming so'm.

Majburiyatning baholash kunidagi ijro etish qiymati 999 600,0 ming so'mni tashkil etadi. Aktivning o'rnini qoplash qiymati — baholash sanasidagi ekvivalent aktivning qiymati bo'lib, u baholash sanasida to'lanishi lozim bo'lgan haqdan va ushbu sanada sarflanishi mumkin bo'lgan bitim bo'yicha xarajatlardan iboratdir. Majburiyatni o'rnini qoplashning joriy qiymati — baholash sanasidagi ekvivalent majburiyat qiymati bo'lib, u baholash sanasida olinishi mumkin bo'lgan haqdan ushbu sanada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bitim bo'yicha xarajatlardan chegirilgan qiymatidir. O'rnini qoplash qiymati aktiv va majburiyatlarning bozor qiymatini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmaganda, aktivdan foydalanish va uning uzil-kesil chiqib ketishi natijasida kompaniya olishni kutayotgan pul oqimlari hamda majburiyatning bajarilishiga qarab berib yuborilishi kutilayotgan pul oqimlari mavjud bo'lmasa qo'llaniladi. Aktivlar va majburiyatlarni to'g'ri baholash korxona aktivlaridan samarali foydalanish imkonini beradi, hisobotlarda shaffoflik va ishonchni ta'minlaydi, risklarni boshqarishni yengillashtiradi, investitsion jozibadorlikni oshiradi, davlat soliq organlari uchun aniq ma'lumot manbai hisoblanadi va auditorlar uchun ishonchli axborot bazasini yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar asosida baholash orqali milliy iqtisodiyotda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va global moliyaviy tizimga integratsiyalashish imkoni paydo bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aktivlar va majburiyatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida baholash — bu nafaqat buxgalteriya amaliyotining talabi, balki moliyaviy barqarorlik va xalqaro investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Aktivlar va majburiyatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida baholash orqali korxonalarning haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettirish imkoniyati yaratiladi va korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Aktivlar va majburiyatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida baholashni keng joriy qilish bo'yicha quyidagi takliflarni berib o'tamiz: 1) Milliy qonunchilikni MHXS talablariga moslashtirish orqali tegishli me'yoriy asoslarda aktivlar va majburiyatlarni baholash bo'yicha xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan normalarni joriy etish; 2) haqqoniy qiymat, diskontlash, qarz vositalari kabi tushunchalarni aniq huquqiy ta'rif bilan belgilash; 3) amaldagi buxgalterlar uchun MHXS bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etishni kengaytirish; 4) asosiy vosita, ko'chmas mulk, investitsiya, moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni baholashda baholash tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish hamda me'yoriy asoslarni xalqaro talablarga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov. Buxgalteriya hisobi: Darslik — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
2. N.B. Abdusalomova, F.T. Temirov. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. — T.: IQTISODIYOT, 2021. 283 b.
3. S.N. Toshnazarov. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1. Darslik — Samarqand: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2023. 580 b.
4. K.B. Urazov, M.E. Po'latov. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 560 b.
5. N. Toshmamatov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: Darslik — Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. 376 b.
6. R.O. Xolbekov. Buxgalteriya hisobiga kirish. Darslik — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 220 b.
7. Ю.А. Бабаев, А.М. Петров. Бухгалтерский учет: Учебник. Москва: Проспект, 2021. 496 с.
8. И.В. Гоман, Е.С. Подборнова. Бухгалтерский учет, налогообложение и аудит предприятия. Учебное пособие. Самара: Изд-во Самарского университета, 2018. 80 с.
9. Н.Н. Киреенко, С.К. Матальцкая. Бухгалтерский и управленческий учет. Учебное пособие. Минск: БГАТУ, 2022. Ч. 1. 368 с.
10. В.Э. Керимов. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для бакалавров. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К°", 2021. 446 с.
11. Z.N. Qurbonov, K.M. Misirov. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi. Darslik. "Iqtisod-Moliya", 2020. 756 b.
12. S.N. Toshnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 584 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
